



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
IV-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
IV-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI .....	12
<b>Qarajanova Gulnoza Tolliyevna</b>	
MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	19
<b>Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	23
<b>Mirzataev Salamat Muratbaevich</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQRISH VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI .....	28
<b>Tureev Azizbek Abatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII.....	32
<b>Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich</b>	
TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	37
<b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>	
<b>Sharipov Kongratbay Avezimbetovich</b>	
THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS.....	43
<b>Ravshanova Mohinur O'rolovna</b>	
O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	51
<b>Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi</b>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	55
<b>Qaraev Anvar Botirovich</b>	
THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY .....	61
<b>Toirova Mubina</b>	
IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI.....	66
<b>Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI.....	73
<b>Rizayeva Nilufar Oblakulovna</b>	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	79
<b>Abdulla Mavlonov</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	82
<b>Komekova Gulzira Sharbaevna</b>	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ .....	87
<b>Бекматов Акмал Курбонмахматович</b>	
SUG'URTA TASHKIOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI .....	93
<b>Azamatova G. I.</b>	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI .....	98
<b>Omonov Olim Murodullayevich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI .....	104
<b>Isxakova Sarvar Ayubovna</b>	
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН) .....	109
<b>Жанайдарова Камола Абаевна</b>	
INVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA IPO VA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR SAMARADORLIGI .....	115
<b>G'afurov Sherzod Abdvaxob o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARNING AHAMIYATI .....	120
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI .....	123
<b>Nuraliyeva Komila Sanaqulovna</b>	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	130
<b>Utkirova Jasmina Jasur qizi</b>	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI .....	135
<b>Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI VA BASHORATI .....	141
<b>Xakimov D.R.</b>	
ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА НА ЗАНЯТОСТЬ: ОПТИМИЗАЦИЯ И ТРАНСФОРМАЦИЯ РАБОЧИХ МЕСТ .....	151
<b>Эркинбаева Камила Жавлонбековна</b>	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	156
<b>Tangirkulov Bekzod Boxadirovich</b>	
HUDUDLARDA TURISTLARGA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNING SAMARALI RIVOJLANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH: RFEI INDEKSI, KLASSTER MODELI VA "TASTE UZBEKISTAN" RAQAMLI EKOTIZIMI .....	162
<b>Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna</b>	
SAVDODA MARKETING TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	171
<b>Jalalova Dildora Jamolovna</b>	
КЛИМАТИЧЕСКОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В КОНТЕКСТЕ ДОСТИЖЕНИЯ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	174
<b>Лана Цхай</b>	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI MOLIYAVIY HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI MASALALARI .....	181
<b>G'oziyeva Moxira Rustam qizi</b>	



TA'LIM MUASSASALARIDA LIDERLIK SAMARADORLIGINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	189
<b>Yuldashova Yoqutoy</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RAQAMLI KREDITLASHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI .....	193
<b>Karimova Aziza Maxomadrizoyevna</b> <b>Abduraxmonov Faridun Firo'z o'g'li</b>	
SANOAT TARMOQLARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA KONSEPSIYASINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL MAZMUNI .....	199
<b>Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi</b>	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРИЯ, ОТРАСЛЕВАЯ СПЕЦИФИКА И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	204
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
ENHANCING GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: COMPARATIVE LESSONS FROM DEVELOPED ECONOMIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT .....	210
<b>Xolmurodova Durdona Otamurod qizi</b>	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, СОЦИАЛЬНЫЕ И ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	218
<b>Саттарова Зухра Илхомовна</b>	
KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING HUDUDIY INVESTITSIYA FAOLLIGIGA TA'SIRI .....	224
<b>Toirjonov Sardorbek Dilshodjon o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNING BANDLIKNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....	229
<b>Mamadaliyev Doniyorbek Shuhratbek o'g'li</b>	
TOSHKENTDA KICHIK BIZNES KORXONALARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI: LOGIT VA PROBIT MODELLARI ASOSIDA EMPIRIK TAHLIL .....	235
<b>Hasan Ibragimov</b> <b>Mannonov Shahzod</b> <b>Toshmurod Qulmanov</b>	
MOSLASHUVCHAN MENEJMENT VA UNING SIFAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI .....	242
<b>Ibroximova Zuhra Baxtiyor qizi</b>	
IJTIMOIIY SOHANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	247
<b>Ro'zmetov Kamol Ibodullayevich</b> <b>Ibragimov Qayumbek Ikromovich</b>	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI.....	254
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
KORPORATIV AXBOROT TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH KONSEPSIYASINING NAZARIY EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TASNIFI.....	263
<b>Kuchkarov Ulug'bek Tahirovich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MINTAQALARIDA EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
<b>Abdulatifova Moxinur Alisher qizi</b>	
FIZIKA FANINI SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASI ASOSIDA SAMARALI O'QITISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	275
<b>Razzoqov I.D.</b>	
RAQAMLI MEHNAT BOZORLARI VA IQTISODIY BARQARORLIK: O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON MISOLIDA QIYOSIY TAHLIL .....	281
<b>Safarova Gulruh Akmal qizi</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ КАТЕГОРИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ И НАУЧНЫЙ	



ПОДХОД К ЕЁ ОПРЕДЕЛЕНИЮ.....	287
<b>Зайналов Ж. Р.</b>	
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI.....	293
<b>Xolmatova Mumtozbeqim Alisherxon qizi</b>	
TURISTIK BOZOR KONYUNKTURASINI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	298
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
PREPARATION OF NUT JAM USING MULBERRY SYRUP BASED ON ITS CONSUMER PROPERTIES.....	302
<b>Pardaev Gayrat Yakhshibaevich</b>	
BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARINING TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARI.....	306
<b>Tolibova Shaxrizoda</b>	
КОМПЛЕКСНЫЙ НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОТЧЕТ: ТРАНСФОРМАЦИЯ, ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ СТРАХОВОГО РЫНКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	314
<b>Махмудов Комолиддин Розметович</b>	
SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT IN DEVELOPING COUNTRIES: THE SYNERGY OF INVESTMENT, AGRICULTURAL TRANSFORMATION, AND ENVIRONMENTAL POLICY.....	319
<b>Kholmukhamedova Feruza</b>	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA EKSPORT OPERATSIYALARINI MOLIYAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	324
<b>Mir Axmadova Mariyam Nosir Axmadovna</b>	
ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЛИКВИДНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РУСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	330
<b>Бауетдинов Мажит Жанызакович</b>	
<b>Жанызакова Шахноза Мажит кызы</b>	
FEATURES AND WAYS OF FURTHER DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY.....	338
<b>Kobilov Alisher</b>	
<b>Majidova Irodahon</b>	
RAQAMLI UNIVERSITET MODELI — BARQAROR OLIY TA‘LIMNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	346
<b>Nazirova Komola Raximjon qizi</b>	
HUDUD EKSPORTINING XOM ASHYOGA BOG‘LIQLIGI: MOLIYAVIY OQIBATLAR VA BARTARAF ETISH YO‘LLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	352
<b>Norturayev Mansurbek Obid o‘g‘li</b>	
MOLIYA BOZORINING IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	359
<b>Maxkamova Dilafruz Aliyevna</b>	
<b>Miryunusov Avaz Iqboljon o‘g‘li</b>	
ECONOMIC FOUNDATIONS FOR ENHANCING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	363
<b>Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna</b>	
KORXONA BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	368
<b>Shodmanov Toshtemir Ro‘ziyevich</b>	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BOZOR MEKANIZMLARINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O‘RNI.....	372
<b>Amonova Nazokat O‘tkurovna</b>	



ЭКОНОМИКА АВТОМАТИЗАЦИИ КАК ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ МЕНЯЮТ СТРУКТУРУ ЗАТРАТ И БИЗНЕС-МОДЕЛИ .....	378
<b>Ли Д.Э.</b>	
KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNI TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIGA TATBIQ ETISH YO'NALISHLARI.....	382
<b>Bozorov Jasurbek Panji o'g'li</b>	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	387
<b>Tashxodjajev Abdurasul Abdulmansurovich</b>	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL.....	395
<b>Abdig'aniyeva S.M.</b>	
ДАВЛАТ ХАРИДЛАРИДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТГА АСОСЛАНГАН НАРХЛАР МОДУЛИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ: КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КОМПЛАЕНС, ҲИСОБДОРЛИК ВА РАҚОБАТНИ КУЧАЙТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	401
<b>Рахманов Фурқат Темирович</b>	
BANKLARDА SUG'URTA FAOLIYATINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	407
<b>Isayeva Xolbibib Boboqulovna</b>	
<b>Ziyatova Sitora Baxtiyor qizi</b>	
BANKLARDА KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA AXBOROT RISKLARINI BOSHQARISH .....	413
<b>Eshqobilov Ahmad Javliyevich</b>	
MAMLAKAT INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI .....	418
<b>Kuvanchiyeva Mehriniso Davlatgeldi qizi</b>	

# MAMLAKAT INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNING O'RNI



**Kuvanchiyeva Mehriniso Davlatgeldi qizi**  
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti  
“Sanoat iqtisodiyoti” kafedrası o‘qıtuvchisi  
E-mail: mehrinisokuvanchiyeva@gmail.com  
ORCID: 0009-0001-1047-0634  
Tel.: +998 93 092 09 16

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rni, ularning iqtisodiy o‘shish, ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion rivojlanishga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini ko‘paytirishning asosiy yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy investitsiyalar, investitsiya jozibadorligi, investitsiya muhiti, iqtisodiy o‘shish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investorlar, innovatsion rivojlanish, investitsiya siyosati.

**Аннотация.** В данной статье исследуется роль иностранных инвестиций в повышении инвестиционной привлекательности страны, а также их влияние на экономический рост, эффективность производства и инновационное развитие. Рассмотрены основные направления совершенствования инвестиционного климата, создания благоприятных условий для инвесторов и увеличения притока прямых иностранных инвестиций. На основе результатов исследования разработаны практические предложения и рекомендации по повышению инвестиционной привлекательности страны.

**Ключевые слова:** иностранные инвестиции, инвестиционная привлекательность, инвестиционный климат, экономический рост, прямые иностранные инвестиции, инвесторы, инновационное развитие, инвестиционная политика.

**Abstract.** This article examines the role of foreign investment in enhancing a country’s investment attractiveness and its impact on economic growth, production efficiency, and innovative development. The study also highlights key directions for improving the investment climate, creating favorable conditions for investors, and increasing the inflow of foreign direct investment. Based on the research findings, practical recommendations and proposals for strengthening the country’s investment attractiveness have been developed.

**Keywords:** foreign investment, investment attractiveness, investment climate, economic growth, foreign direct investment, investors, innovative development, investment policy.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari sharoitida xorijiy investitsiyalar mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini jadallashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishda xorijiy investitsiyalar muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy kapitalni jalb etish iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishning samarali vositasi hisoblanadi.

Mamlakat investitsiya jozibadorligi investorlarning ma‘lum bir hudud yoki davlat iqtisodiyotiga mablag‘ kiritish bo‘yicha qarorlariga ta’sir etuvchi iqtisodiy, normativ-huquqiy va institutsional omillar yig‘indisi bilan



tavsiflanadi. Investitsiya jozibadorligi yuqori bo'lgan mamlakatlar xorijiy investorlar e'tiborini ko'proq tortadi, natijada iqtisodiyotga kapital oqimi ortadi, ishlab chiqarish quvvatlari kengayadi va innovatsion rivojlanish uchun zarur sharoitlar yaratiladi. Shu bois investitsiya jozibadorligini oshirish masalasi bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, investorlar huquqlarini himoya qilish va iqtisodiyotning turli tarmoqlariga xorijiy kapitalni jalb etishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatning xalqaro investitsiya maydonidagi mavqeyi mustahkamlanib bormoqda. Biroq jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, investitsiya resurslari uchun kurashning ortishi hamda global iqtisodiy beqarorlik sharoitida investitsiya jozibadorligini yanada oshirish va xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotga moliyaviy resurslarni jalb qilish bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar, innovatsion boshqaruv usullari, ilg'or tajriba va xalqaro standartlarning kirib kelishiga ham xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan xorijiy investitsiyalarning investitsiya jozibadorligini oshirishdagi o'rni va ta'sirini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyatini tahlil qilish, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish masalalari iqtisodiyot fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur masala xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, texnologik rivojlanish va investitsiya muhitini takomillashtirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Xorijiy investitsiyalar nazariyasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri J. Dunning hisoblanadi. Uning eklektik paradigma (OLI) nazariyasiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar oqimi korxonalarining mulkiy ustunligi, investitsiya kiritilayotgan hududning jozibadorligi hamda faoliyatni ichki boshqarish afzalliklari bilan belgilanadi. Olim investitsiya jozibadorligi yuqori bo'lgan mamlakatlar xorijiy kapitalni jalb etishda ustunlikka ega bo'lishini ta'kidlaydi. S. Hymer xorijiy investitsiyalar nazariyasini rivojlantirib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar xalqaro kapital harakatining eng samarali shakli ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, transmilliy kompaniyalar xorijiy bozorlarga kirib borishda o'zlarining texnologik, moliyaviy va boshqaruv ustunliklaridan foydalanadi. Natijada investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasi oshadi. Iqtisodiy o'sish nazariyasining namoyandalaridan biri R. Solow investitsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholagan. Uning tadqiqotlarida kapital qo'yilmalar hajmining ortishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining tezlashishiga xizmat qilishi ko'rsatib berilgan. P. Romer esa endogen o'sish nazariyasi doirasida investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab, xorijiy investitsiyalar orqali zamonaviy texnologiyalar va bilimlarning kirib kelishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini ta'kidlagan. M. Porter mamlakatlarning xalqaro raqobatbardoshligi nazariyasida investitsiya muhiti, infratuzilma sifati, institutsional rivojlanish va innovatsion salohiyat investorlar qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, investitsiya jozibadorligini oshirish iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan uzviy bog'liqdir. A. Rugman esa xalqaro biznes va investitsiya jarayonlarini o'rganib, xorijiy investitsiyalar oqimining ko'payishi mamlakatlarning global iqtisodiy integratsiyasini kuchaytirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham investitsiya faoliyatining nazariy va amaliy jihatları chuqur tadqiq etilgan. Xususan, A. Vahobov investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim moliyaviy manbai sifatida baholab, investitsiya muhitining barqarorligi, huquqiy kafolatlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining xorijiy investorlar uchun muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. D. G'ozibekov investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya siyosati va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Olimning fikricha, investitsiya jozibadorligini oshirish iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi.

Shuningdek, X. B. Isayeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sug'urta bozorining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilingan. Muallifning ta'kidlashicha, rivojlangan sug'urta bozori investorlarning moliyaviy risklarini kamaytirish, investitsiya faoliyatining xavfsizligini ta'minlash va investitsion muhit barqarorligini mustahkamlash orqali mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi (Isayeva, 2024). Mazkur yondashuv investitsiyalarni jalb etishda moliyaviy infratuzilma institutlarining ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.



Sh. Mustafakulovning ilmiy tadqiqotlarida investitsiya muhitini baholash, investorlar uchun qulay biznes sharoitlarini yaratish va hududlarning investitsion salohiyatini oshirish masalalari o'rganilgan. Muallif investitsiya jozibadorligini oshirishda institutsional islohotlar, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va investorlar huquqlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy investitsiyalar mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Biroq global iqtisodiy sharoitning o'zgaruvchanligi va investitsiyalar uchun xalqaro raqobatning kuchayishi investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, investorlar uchun qulay institutsional sharoitlarni yaratish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investitsiya muhiti va investitsiya jozibadorligini baholashga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, maqolalari va ilmiy-amaliy tavsiyalari nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Markaziy bank, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar va tahliliy hisobotlar tashkil etdi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, xorijiy investitsiyalar oqimining dinamikasi va mamlakat investitsiya jozibadorligiga ta'sirini aniqlashda iqtisodiy-statistik tahlil usuli qo'llanildi. Turli mamlakatlarning investitsiya siyosati va investitsiya muhitini o'zaro solishtirishda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Shuningdek, investitsiya jozibadorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini baholashda tizimli yondashuv asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, investitsion faollik ko'rsatkichlari hamda investitsiya muhiti bilan bog'liq statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish va xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval  
O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) hajmining o'zgarishi<sup>1</sup>

Yillar	TXI hajmi, mlrd AQSh dollari	O'sish sur'ati, foizda
2020	1,73	-
2021	2,28	31,8
2022	2,66	16,7
2023	2,16	-18,8
2024	2,84	31,5

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2020–2024-yillar davomida umumiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Xususan, 2020-yilda 1,73 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2024-yilda 2,84 mlrd AQSh dollariga yetib, qariyb 64 foizga oshgan. Bu esa mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining samaradorligini ko'rsatadi.

2023-yilda investitsiyalar hajmida ma'lum pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, 2024-yilda xorijiy investitsiyalar oqimi yana tiklanib, 31,5 foizga o'sgan. Ushbu holat mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilanib borayotganligi, investorlar uchun yaratilayotgan huquqiy va iqtisodiy kafolatlar samarasi bilan izohlanadi.

2024-yilda iqtisodiyotga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11,9 mlrd AQSh dollariga yetib, avvalgi yilga nisbatan 53,6 foizga oshgani ham investitsiya faolligining kuchayganligini tasdiqlaydi. Xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi sanoat, energetika, transport, qurilish va xizmatlar sohasiga

1 Manba: Jahon banki, UNCTAD va O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



yo'naltirilgan bo'lib, bu tarmoqlarning modernizatsiyalashuvi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsiya jozibadorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga makroiqtisodiy barqarorlik, qulay biznes muhiti, rivojlangan infratuzilma, investorlar huquqlarining himoyasi va davlat tomonidan berilayotgan rag'batlantirish mexanizmlari kiradi. Aynan ushbu omillarning takomillashuvi xorijiy investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchini oshirib, investitsiyalar oqimining ko'payishiga olib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy investitsiyalar mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular iqtisodiyotga qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb qilish bilan bir qatorda, zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va ilg'or boshqaruv tajribalarining kirib kelishini ta'minlaydi. Natijada iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashadi, eksport salohiyati ortadi va yangi ish o'rinlari yaratiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy investitsiyalar mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorlardagi nufuzini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda. Natijada iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. Biroq investitsiya jozibadorligini yanada oshirish uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va ayrim mavjud muammolarni bosqichma-bosqich hal etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish;
- xorijiy investorlar uchun ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va raqamlashtirish darajasini oshirish;
- hududlarning investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida investitsiyalarni hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish;
- transport-logistika va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish orqali investorlar xarajatlarini kamaytirish;
- yuqori texnologiyali va eksportga yo'naltirilgan loyihalarni moliyaviy hamda institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan kengroq foydalanish;
- investorlar huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini kuchaytirish va investitsiya xavfsizligini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirishda xorijiy investitsiyalar strategik ahamiyatga ega bo'lib, ularning iqtisodiyotga keng jalb etilishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va aholi farovonligini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bois investitsiya muhitini doimiy ravishda takomillashtirib borish hamda xorijiy investorlar uchun yanada qulay biznes muhitini yaratish mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunning J.H., Lundan S.M. Multinational Enterprises and the Global Economy. – 2nd ed. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2008. – 920 p.
2. Hymer S.H. The International Operations of National Firms: A Study of Direct Foreign Investment. – Cambridge: MIT Press, 1976. – 253 p.
3. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
4. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. S71–S102. DOI: 10.1086/261725.
5. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65–94. DOI: 10.2307/1884513.
6. Rugman A.M. The End of Globalization: Why Global Strategy Is a Myth and How to Profit from the Realities of Regional Markets. – New York: AMACOM, 2001. – 240 p.
7. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. – Toshkent: Moliya, 2010. – 328 b.



8. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: Moliya, 2003. – 332 b.
9. Mustafakulov Sh.I. Investment Environment Attractiveness: Methodic Assessment and Impact on Economic Development. – Toshkent: Baktria Press, 2017. – 304 p.
10. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi O'RQ-598-son "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. – URL: <https://lex.uz/docs/-4664142>.
11. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. – Geneva: United Nations, 2024.
12. World Bank. World Development Report 2024: The Middle-Income Trap. – Washington, D.C.: World Bank, 2024.
13. International Monetary Fund. World Economic Outlook, April 2024: Steady but Slow: Resilience amid Divergence. – Washington, D.C.: IMF, 2024.
14. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonning investitsiya faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha statistik to'plam. – Toshkent, 2025.
15. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. Investitsiya faoliyati bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2025.
16. Krugman P.R., Obstfeld M., Melitz M.J. International Economics: Theory and Policy. – 11th ed. – New York: Pearson Education, 2018. – 784 p.
17. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. – 12th ed. – New York: Pearson, 2015. – 896 p.
18. Isayeva X.B. O'zbekistonda sug'urtaning rivojlanishi va muammolari, O'zbekistonda sug'urta sohasining rivojlanish istiqbollari // Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2024.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>